

MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYA SALOHIYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA JOZIBADORLIGI

Iskandarov Sanjarbek Tursunbekovich, i.f.f.d. dotsent

Dehqonova Sevarahon Fatxitdin qizi

Agrobiznes va investition faoliyat mutaxassisligi magistranti

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

E-mail: safida23@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiyotning asosiy rivojlantiruvchi omili bo‘lgan investitsiyalar salohiyatini oshirish masalalari tahlil etilgan hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, Harakatlar strategiyasi, ijtimoiy infratuzilma, investitsiya siyosati, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, bandlik, ishlab chikaruvchi kuchlar, yalpi ichki mahsulot, moliyaviy institutlar, bozor iqtisodiyoti, Xorijiy investitsiya.

Abstract: In this article, the issues of increasing the potential of investments, which are the main development factor of the economy in the conditions of digitalization of the economy, are analyzed and the issues of attracting foreign investments are studied.

Key words: investment, action strategy, social infrastructure, investment policy, expanded reproduction, employment, productive forces, gross domestic product, financial institutions, market economy, foreign investment..

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning samarali tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsiya faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, investitsiya faoliyati milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omili

hisoblanadi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borishda iqtisodiy tarmoqlararo investitsiyalar yo‘nalishini va taqsimlanishini ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish, investitsiya samaradorligi, xatarlilik va tavakkalchilik darajalarini aniqlash modellarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi¹. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, iqtisodiyotni faol rivojlantirish uchun keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb qilishni talab qiladi.

Investitsiya faoliyati asosidagi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish fan-texnika taraqqiyotining o‘shish sur‘atlari va ko‘lamiga faol ta’sir ko‘rsatadi, ishchi kuchi bandligini ta’minlashga shart-sharoit yaratadi. SHuningdek, mazkur faoliyat iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, mamlakatdagi ishlab chikaruvchi kuchlarning oqilona joylashtirilishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonda pandemiya koronavirusi bilan bog‘liq iqtisodiy inqiroz hukm surayotgan hozirgi sharoitda dunyo iqtisodiyotining o‘shishi taxminan 2,5-3 foizga qisqardi. Mamlakatimizda esa yalpi ichki mahsulotning o‘shishi kuzatildi va bu o‘shish 2019 yildagiga nisbatan 2020 yilda 4,3 foizni tashkil etdi. Nufuzli halqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Halqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiya taraqqiyot banki va dunyo miqyosidagi boshqa yetakchi moliyaviy institutlar ham e’tirof etayotgan bu kabi yutuqlar avvalo, hukumatimiz tomonidan 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan pandemiya sabab inqirozga qarshi choralar dasturi qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatda birgina 2019 yilning o‘zida iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 17,5 milliard dollarni tashkil etdi. Bu 2018 yildagiga nisbatan 24,8 foiz ko‘p, demakdir. SHuningdek, jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 68 foizga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-Фармонининг 1-илоvasи “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. // Lex.uz.

oshdi. eng muhimi, ularning asosiy qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hisobidan amalga oshirildi. Kelgusida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini yanada oshirish rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo‘lgan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida, mashinasozlik sohasida, aviatsiya, logistika sohasida, oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida, kimyo sohasida, to‘qimachilik va yengil sanoat sohalarida, bank-moliya sektorida bugungi kunda Respublika hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan qo‘shma korxonalarining soni 6 mingdan oshdi.

Keng miqyosdagi investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish maqsadlarida xalqaro moliyaviy institutlar bilan faol hamkorlik, xorijiy investorlar uchun imkoniyatlar doirasi izchil kengaytirilib borilishi ancha murakkab bo‘lgan o‘tgan yilda ham, 2022 yilda ham O‘zbekistonda iqtisodiy yuksalishni kamida 5,6 foiz darajasida belgilash va unga erishish imkoniyatini beradi. Bunday maqsadlarning asosli ekanligi eng obro‘li halqaro moliyaviy institutlar tomonidan ham qayd qilingan.

Investitsiya faoliyati har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki shu faoliyat orqali mamlakat ishlab chiqarish quvvatining yuqori darajada o‘sishi, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi va sifatining ortishi, moddiy va ma‘naviy ehtiyoj qondirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma sohasining rivojlanishini ta‘minlash mumkin. Hozirgi zamonda investitsiya faoliyati iqtisodiy tuzilmani o‘zgartirishni amalga oshiruvchi asosiy dastak bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini zamonaviylashtirish, tabiiy resurs va hududlarni o‘zlashtirish, aholini ish bilan ta‘minlash, fan-texnikani rivojlantirish, ekologik muammolarni bartaraf etish sohasidagi muammolarni hal etishga qaratilishi kerak. Mamlakatda investitsiya siyosatini amalga oshirish va samarali boshqarish uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Bular eng avvalo, respublikada tadbirkorlikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, qulay geografik joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarni mavjudligida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Investitsiya faoliyati hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotining milliy va jahon darajasisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Xorijiy investitsiyalardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki va tadbirkorlikning erkin tarmoqlariga kapitalning oqib o‘tishi tizimi bilan bevosita bog‘liq ob‘ektiv zarurat hisoblanadi. Yana shuni alohida qayd etish muhimki, investitsiya siyosiy, iqtisodiy huquqiy kafolatlangan sharoitdagina samarali natija berishi mumkin. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda davlat investitsiya jarayonining bosh tashkilotchisi bo‘lishi va uning asosiy funksiyasi bo‘lgan ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan bosh investor sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Jahon amaliyotida investitsiya jarayonlarining bir nechta modellari mavjud. Bunday modellarning har biri ma’lum bir maqsad va sharoitlarni o‘z ichiga oladi. Har bir model mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining turli bosqichlari va tashqi iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tanlangan va amalga oshirilayotgan investitsiya modeli muayyan bir davrda iqtisodiyotning istiqboldagi rivojini ta’minlashi va samaradorligini oshirishga ko‘maklashishi, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib qo‘yilgan, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarini hal etishi lozim. N.V. Igoshin investitsiya jarayonlarining: iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik; iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida investitsiya jarayonlari va ochiq dunyo bozori; zarur holatlarda investitsiyalarni chetdan jalb etish; investitsiya jarayonlarining rejali-taqsimot; aralash iqtisodiyot uchun investitsiya jarayonlari modellarini ko‘rsatib o‘tadi².

Iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat himoyasidagi proteksionistik investitsiya jarayonlari modelidan bu jarayon iqtisodiyotni to‘liq erkinlashtirish sharoitida davlat tomonidan himoyalangan proteksionistik tartibda olib boriladi. Bunday model ichki investitsiya resurslariga ega bo‘lgan va ayni vaqtda bozor

² Игошин Н.В. Инвестиции. Организация управления и финансирование: Учебник для вузов. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001. – с.91–106.

munosabatlari qonun ustuvorligi asosida tartibga solingan mamalakatlarda foydalaniladi. Raqobat kurashida unga dosh bera olmagan ishlab chiqaruvchilar va investorlar mag‘lubiyatga uchraydi va jamiyatda kattagina moliyaviy mablag‘lar o‘z qo‘lida to‘planib qolgan, tor qatlamdagi «g‘oliblar» sinfi yuzaga keladi. Natijada erkin raqobat o‘z o‘rnini monopoliyaga bo‘shatib beradi. Bu esa o‘z navbatida monopollar o‘rtasida zo‘ravonlikni keltirib chiqaradi va pirovardida ularni o‘zaro kelishishga majbur qiladi. Tor qatlamdagi «g‘oliblar»ning kapitallari tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni yana ham kengaytirish hisobiga ko‘payib boradi. Natijada, o‘ta boy kishilar tor qatlami qo‘lida pul massasining katta qismi to‘planishi va aholi katta qismining to‘lov qobiliyati yo‘qolishiga olib keladi. Raqobatga dosh beraolmagan ishchi kuchining bir qismi ishlab chiqarishdan siqib chiqariladi va ishsiz bo‘lib qoladi.

Uzoq muddatli investitsiya loyihalari, asosan, yer osti boyliklarini o‘zlashtirishni, ustuvor ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash kabi sohalarni xususiy sektor korxonalarini mustaqil ravishda o‘zlari eplay olmaydi. Bunday investitsiya loyihalari davlat buyurtmasi asosida byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hisobiga amalga oshirish mumkin. Bu esa, iqtisodiyotni erkinlashtirish emas, balki ishlab chiqarish va bozorni davlat tomonidan tartibga solishga sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-Farmonining 1-ilovasi “
2. Igoshin N.V. Investitsii. Organizatsiya upravleniya i finansirovaniye: Uchebnik dlya vuzov. 2-e izd., pererab. i dop. –M.: YUNITI-DANA, 2001. – s.91–106.
3. S. Iskandarov investitsiya nazariyasi
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘rnitasining statistik ma’lumotlari.
5. G‘ozibekov D. G‘. Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish Risola T.: “Iqtisod Moliya”, 2007